

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШ АВЛОД САЛОМАТЛИГИНИ  
МУСТАҲКАМЛАШДА КОНУНЧИЛИК ТИЗИМИНИ  
МУСТАҲКАМЛАНИШИ**

*Алфраганус университети Ижтимоий*

*фанлар кафедраси в.б. доцент, PhD*

**Маманов Жамолиддин Абдурахимович**

*j.mamatov@afu.uz*

*ORCID 0009-0009-6842-2158*

Бугунги кунга келиб, Ўзбекистонда кенг миқёсида соғломлаштириш тадбирлари олиб борилмоқда. Бундан қўзланган асосий натижа – “Соғлом она – соғлом бола” мақсадига эришишdir. Республикаизда ўсиб келаётган ёш авлод саломатлигини шакллантириш ва уни мустаҳкамлашда, қонунчилик тизимининг яратилиши ҳамда бу орқали фаолиятлар қўламини яхшилаш масалалари, давлатимизнинг асосий эътиборида бўлиб келмоқда.

Чунончи, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 йил 24 октябрдаги 3154-сонли Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 31 октябрдаги 374-сонли “Болалар спортини ривожлантириш жамғармаси фаолиятини ташкил қилиш тўғрисида” ги Қарори бу жараёнларни янада такомиллаштириш ва ривожлантиришда муҳим омил бўлмоқда. Маълумки 2005 йил Президентимиз томонидан «Сихат-саломатлик” йили, 2010 йил «Баркамол авлод йили», 2014 йил - “Соғлом бола йили” деб эълон килинди, Демак республикада халкни, айникса болалар саломатлиги саклаш, мустаҳкамлаш давлат миқёсига кутарилди. Президентимиз таклифи билан 2016 йил юртимизда “Соғлом она ва бола йили” деб номланди. Бундай эзгу ташабус халқимиз, кенг жамоатчилик томонидан катта хурсандчилик билан кутиб олинди. Соғлом фарзанд оила жамиятнинг таянчидир.

Оналар ва болалар саломатлигини муҳофазалаш, жойларда, айниқса чекка худудларда тиббий хизмат сифатини янада яхшилаш, аҳолининг тиббий маданиятини юксалтириш, даволаш муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш каби эзгу мақсадларни амалга оширишда Юртбошимиз томонидан жорий йилнинг 9 февраляда тасдиқланган “Соғлом она ва бола йили” Давлат дастурининг ўрни бекиёс. 2005 йилда юртимизда 6 ёшдан 15 ёшгача бўлган болалар ва ўсмирларнинг 30фоизи, жумладан, қишлоқ жойларда 29 фоизи спорт билан шуғулланган бўлса, ўтган йили бу рақамлар тегишли равишда 57.2 ва 56 фоизни ташкил этди. Бугунги қунда қиз болаларнинг 47 фоизи, қишлоқ жойларда эса 44.7 фоизи спорт билан мунтазам шуғулланиб

келаётгани, болалар ўртасида олтмишга яқин спорт тури ривожланиб бораётгани янада кувонарлидир. Шу ўринда соғлом авлодни тарбиялаш ва жамиятда соғлом турмушни қарор топтиришга хизмат қилаётган спортнинг янада оммавийлашувини таъминлаш жараёни изчилик касб этаётганини айтиб ўтиш жоиз. Мазкур соҳанинг хуқуқий механизми давр талабларига ҳамоханг равишда такомиллатирилаётгани ўз самарасини бермоқда. Хусусан, ўтган йили янги таҳрирда амалиётга татбиқ этилган “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида” ги Қонун бу борадаги ишларни янги босқичга олиб чиқди. Ана шундай, ҳар тамонлама пухта ўйланган ва узоқни кўзлаб олиб борилаётган саъй-ҳаракатлар туфайли юртимизда болаларнинг саломатлик ва ривожланиш кўрсаткичлари тобора ўсмоқда, оиласаримизда фарзандларни спортга ошно қилиб тарбиялашга интилиш кучаймоқда, жамиятда соғлом муҳит ва соғлом қарашлар шакллананаёттир.

Тиббиёт тизимида рўй бераётган кенг қамровли ислоҳатлар натижасида аҳолининг малакали тиббий хизматдан фойдаланиши учун зарур шартшароитлар яратилди. Оналик ва болаликни муҳофаза этишнинг ўзига хос миллий модели шакллантирилди. Давлатимиз раҳбарининг “2014-2018 йилларда Ўзбекистонда аҳолининг репродуктив саломатлигини янада мустаҳкамлаш, оналар, болалар ва ўсмирлар соғлиғини муҳофаза қилиш борасидаги Давлат дастури тўғрисида” ги қарори фарзандларимизнинг жисмоний ва маънавий камолатини таъминлаш, аҳоли саломатлигини янада мустаҳкамлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилаётир. Пировардида “Соғлом она – соғлом бола” концепцияси халқаро миқёсида ҳам кенг эътироф этилмоқда. Таъкидлаш жоизки, бебаҳо бойлик бўлган саломатликни муҳофаза қилиш мақсадида ўтган йили 141 тиббиёт муассасасини куриш, реконструкциялаш, капитал таъмирлаш ҳамда жиҳозлаш учун қарийиб 500 миллиард сўм сарфланди. Дарҳақиқат, бу каби тадбирлар жамоатчилик орасида соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб қилиш, профилактик чоратадбирларни сифатли ташкил этиш, айниқса, оналар ва болалар ҳамда ёшлиарнинг тиббий маданиятини юксалтиришда муҳим ўрин тутади. Зеро, Президентимиз таъкидлаганидек, она ва бола соғлом бўлса, оила баҳтли бўлса, жамият мустаҳкам бўлади.

Болаларни саломатлигини мустаҳкамлашда нафақат тиббиет ходимлари, балки жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассисларни зиммасига юклантирилган. Бу аввало, бошланғич спорт тайёргарлиги босқичига тааллукли булиб, бу босқичнинг вазифаси мактаб уқитувчиларни болалар саломатлигини мустаҳкамлаш, жисмоний ривожланишдаражасини ошириш, ахлоқий-этик хислатларни тарбиялашдан иборатдир. Спорт аҳоли орасида оммалашиб кетиши натижасида ҳаётий эҳтиёжга айланди. Болаликдан бажарилган доимий

машқлар организм имкониятларини кенгайтириш, саломатликни мустаҳкамлашга асос яратиш лозим. Бу эса, ўз навбатида таълим жараёнини мустаҳкамлашга асос беради, етук ёшда – ишчанлик ва ишлаб чиқаришдаги меҳнат қобилиягини оширади, натижада буларнинг бари улкан ижтимоий ҳамда иқтисодий аҳамият касб этади. Болаларнинг илмий жиҳатдан асосланган ва тўғри ташкил этилган жисмоний тарбия машғулотлари, ёш организмга ижобий таъсир қўрсатади: чунончи, у фарзандларимизни ҳар томонлама жисмоний ва руҳий ривожланишига асос бўлиб, ҳаракат имкониятларини кенгайтиради, ҳимоя мослашув реакцияларини ошириб, организмни ташқи омилларнинг ноқулай таъсирига чидамлигини кучайтиради, шунингдек болалар ва ўсмирларга қувноқлик, тетиклик бағишлиб, ватанга муҳаббат туйғуларини шакллантиради.

Шу муносабат билан Президентимиз И.Каримов илгари айтган бир фикрни яна бир бор таъкидлашни ўринли деб биламан: XXI асрда ҳам жисмоний, ҳам маънавий етук, интеллектуал бойлика эга бўлган авлод ва халқигина жаҳон миқёсидаги бугунги кескин мусобақада ғолиб бўла олади.

### **Адабиётлар рўйхати**

1. Mamanov, J. A., & Roziqov, J. M. (2021). Milliy mentalitetning yoshlar madaniyatiga ta'siri. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 170-178.
2. Mamanov, J. A. (2018). Yoshlar ma'naviy madaniyatiga tahdid yoki messionerlikning salbiy oqibatlari. O'zMU xabarnomasi, 169.
3. Mamanov, J. A. (2018). MA'NAVIY TARBIYA TAKOMILIDA SPORT VA AXLOKIY MADANIYATNI UYFUNLASHTIRISH MASALASI. Fan-Sportga, (3), 74-78.
4. Mamanov, J. A., & Xushvaqtov, Z. R. (2022). MILLIY MENTALITET (MEXANIZMI) VOSITASIDA YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 9-13.
5. Mamanov, J. A. (2020). Young people are increasing a spiritual culture place of national mentality. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 3203.
6. Mamanov, J., & Turg'unov, T. (2022). MILLIY MENTALITET ASOSIDA YOSHLAR MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 520-528.
7. Mamanov, J. A. (2023). YOSHLAR MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(13), 383-390.

8. Mamanov, J., & Turg'unov, T. (2023). MAMLAKATIMIZ AHOLISI O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI QAROR TOPTIRISH–BUYUK KELAJAK ASOSI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 311-314.
9. Машарипова Г.К. Хоразм Маъмун Академияси алломалари табиий-илмий, ижтимоий-фалсафий ва маънавий меросининг ижтимоий тафаккур тараққиётига тъсири. Монография. – Тошкент, Navro'z нашриёти, 2019. - 364 б.
- 10.Машарипова Г.К. Абу Али ибн Сино илмий-фалсафий ва маънавий меросининг жамият ҳаётидаги ўрни. Монография. – Тошкент, Navro'z нашриёти, 2020. – 144 б.
- 11.Машарипова Г.К. Ўрта асрнинг буюк кашфиётлари - хоразмлик математикларининг илм-фан тараққиётига қўшган ҳиссалари. Монография. - Тошкент: Navro'z нашриёти, 2021. – 210 б.
12. Masharipova G.K. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va falsafiy qarashlari. Monografiya. - Toshkent, Fan ziyosi, 2022. - 160 b.
13. Masharipova G.K. The Role Of The Development Of Civilization Of Natural Scientific, Socio-Philosophical And Spiritual Information Of Scientists Of The Khorezm Mamun Academy. Monography. - Taemeer Publications LLC (Michigan, USA/ Hyderabad, India), 2024. - 242 p.
14. Masharipova G.K. Education Of Youth Of New Uzbekistan By Studying The Heritage Of Thinkers. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ)* ISSN (E): 2347-6915. Vol. 11, Issue 12, December (2023). - Pp. 169-174
15. Masharipova G.K. The Problem Of Education Of Youth Of New Uzbekistan By Teaching The Heritage Of Scientists Of The Khorezm Academy Of Mamun. Intent Research Scientific Journal-(IRSJ) ISSN (E): 2980-4612 Volume 2, Issue 11, November-2023 Website: intentresearch.org/index.php/irsj/index - pp. 43-50.
16. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tadqiqot manbalarining asosiy yo'nalishlari. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. 2024-11/3. - B. 69-72. <http://mamun.uz/uz/page/56>.
17. Masharipova G.K. Sharq Aristotelizmi, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino qarashlari. Tamaddun nuri jurnali. 2024 yil dekabr soni. - B. 158-161. <https://doi.org/10.69691/q3ep8x11>.
18. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sinoning ontologik ta'limotida neoplatonik unsurlar va axloqiy qarashlarning insonparvar-lik mohiyati. Falsafa va huquq jurnali. 2024/3. – 20-25-b. <https://nuu.uz/falsafa-va-huquq-jurnali/>
19. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sinoning borliq va bilish haqidagi falsafiy qarashlari. International Scientific Journal Of Biruni ISSN (E) 2181-2993 vol. 3, issue 2. oct. (2024). B. 72-80. <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-ali-ibn-sinoning-borliq-va-bilish-haqidagi-falsafiy-qarashlari>

20. Masharipova G.K. Ajdodlarimiz boy ma'naviy merosida Mirzo Ulug'Bekning "To'rt ulus tarixi" asari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(9), Oct., 2024 Research BIB / Index Copernicus [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz). - B. 220-229. Ikromboyev X. <https://cyberleninka.ru/article/n/ajdodlarimiz-boy-ma-naviy-merosida-mirzo-ulug-bekning-to-rt-ulus-tarixi-asari>
21. Masharipova G.K. Scientific Heritage Of Fakriddin Ar-Razi, One Of The Scientists Of The Anushteghini-Khorazmshah Period. American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR) ISSN: 2195-1381. Vol. 1 Issue 6, September – 2024, Pages: 10-12. <http://www.ijarer.org/>
22. Masharipova G.K. Studying The Heritage Of Allos Based On The Principle Of Continuity. International Journal Of European Research Output ISSN: 2053-3578 I.F. 12.34. - vol.3 no.12 december (2024). Pp. 206-212. [https://api.scienceweb.uz/storage/publication\\_files/10413/27969/676542beca8f8\\_Masharipova.pdf](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/10413/27969/676542beca8f8_Masharipova.pdf).
23. Masharipova G.K. Main Research Areas Of Scientists Of The Khorazm Academy Of Ma'muna American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR) ISSN: 2195-1381 Vol. 1 Issue 8, December – 2024, Pages: 242-247. <http://ijarer.org/index.php/ij/issue/view/4>.